



2025-yil "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" va 5-iyun xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag'ishlanadi

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L – VOHA EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2025-yil 5-6-iyun





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
BUXORO VILOYAT EKOLOGIY, ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA
IQLIM O‘ZGARISHI BOSHQARMASI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
GREEN UNIVERSITY - MARKAZIY OSIYODA ATROF MUHIT VA IQLIM
O‘ZGARISHINI O‘RGANISH UNIVERSITETI
KAZAN FEDERAL UNIVERSITETI
TUYMEN DAVLAT UNIVERSITETI
OMSK DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

5-iyun xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag‘ishlanadi

**IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA CHO‘L – VOHA
EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2025-yil 5-6-iyun

BUXORO – 2025

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston turizm sohasi so'nggi o'n yillikda izchil rivojlanib, jahon turizm xaritasida o'zining mustahkam o'rnini egallab bormoqda. 1995–2016-yillar orasida nisbatan sekin sur'atda o'sib borgan xorijiy turistlar soni, 2017-yildan boshlab sezilarli darajada ortdi. Ayniqsa, 2018–2019-yillarda olib borilgan davlat siyosati, vizasiz rejimlar va marketing kampaniyalari turizmga keskin o'sish olib keldi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli jiddiy pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, soha qisqa muddatda tiklanib, 2024-yilda 8,2 million turistga yetdi.

Statistik prognozlar asosida 2030-yilga kelib xorijiy turistlar soni 30 milliondan oshishi kutilmoqda. Bu esa O'zbekiston turizm salohiyatining yuksak ekanini ko'rsatadi. Biroq ushbu o'sish barqaror va sifatli bo'lishi uchun turistik infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, ekologik va qishloq turizmini kengaytirish, hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida turizmni raqamlashtirish, innovatsion yechimlar joriy etish va mahalliy aholining ishtirokini ta'minlash orqali O'zbekistonni raqobatbardosh, barqaror va jahon darajasidagi turizm markaziga aylantirish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Ozbekiston strategiyasi. - Toshkent: Ozbekiston nashriyoti, 2021, - 464 b. lib.cspi.uz/index.php?newsid=4534
2. Ozbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi Turizm to'g'risida ORQ-549-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/4428097>
3. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda Ozbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni taminlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-4861-sonli Farmoni.
4. Samarqanda viloyati statistika qo'mitasi
5. <https://lex.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti — <https://stat.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi materiallari — <https://uzbektourism.uz>

QULJUQTOV TIZMASINING GEOLOGIK VA GEOMORFOLOGIK JIHATLARI XUSUSIDA

Adizxonova Z.A.

1-kurs magistrant. BuxDU, Buxoro sh. O'zbekiston

Halimova G.S.

BuxDU, Buxoro sh. O'zbekiston

Kirish. Tabiat komplekslarining shakllanishida geologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Hududning relyefi, uning morfostrukturasi va morfodinamikasi aynan geologik asosga bog'liq holda shakllanadi. Har qanday geografik tadqiqotlar geologiyadan boshlanib, o'sha hududning siyosati bilan tugashi lozimligi to'g'risidagi hikmatomuz haqiqatlar bejizga aytilmagan.

Asosiy qism. Buxoro hududi aksariyat tekisliklardan iborat bo'lsada o'ziga xos murakkab geologik tarixga ega. Bu zamin epigorsin (gersindan keyingi) platforma ustida joylashgan. Dastavval, paleozoy erasigacha bu joy ham O'rta Osiyodagi serharakat geosinklinal dengiz havzasidan iborat bo'lgan. Qalin dengiz yotqiziqlarning to'plana borishi bilan birga tektonik harakatlar jonlanib turgan. Kembriy davrida shimol-shimoli-g'arb tomonga yo'nalgan qator o'ta chuqur tektonik yoriqlar hosil bo'ladi. Paleozoy erasining ikkinchi yarmida ro'y bergan qudratli gersin burmalanishi nisbatan osoyishta bo'lgan tektonik vaziyatni tubdan o'zgartirib yuboradi. Viloyat hududiga yondosh bo'lgan Tyanshan sistemasiga kiruvchi baland tog'lar qad ko'taradi. Tektonik yoriqlar orqali magmaning kirib kelishi hamda ko'tarilish – cho'kishlar ro'y beradi. Dengiz va quruqlik cho'kindilarining to'planishi davom etadi. Atrofdagi tog'larda (jumladan Quljuqtov) vulkanizm avj oladi. Paleozoyning oxiri va mezazoy erasining boshlariga kelib tog'lar batamom yemiriladi.

Mezozoy – paleogen davrida butun O'zbekiston jumladan. Qizilqum goh dengiz, goh quruqlik sharoitida rivojlangan va turli tarkibdagi jinslar bilan qoplana borgan. Paleogen davriga kelib hududda turli neotektonik harakatlar boshlangan. Mamlakatning hozirgi tog'li rayonlarida ko'tarilish va cho'kishlar yig'indisi 11- 14 km ga yetgan. Platforma bosqichini boshidan kechirgan juda ko'p tog'lar (jumladan Quljuqtov) ushbu ko'tarilishlar tufayli palaxsalanib ketgan.

Buxoro viloyatining shimolida – Qizilqumning markaziy qismida g'arbdan sharqqa uzoq masofaga cho'zilgan Quljuqtov tizmasi geologik jihatdan ko'p qirrali hudud bo'lib, turli geologik davrlar yotqiziqlaridan iborat.

Eng ko'p tarqalgan jinslar Mezazoy erasining bo'r davriga tegishli bo'lib asosan dengiz va quruqlik sharoitida cho'kindi jinslardan tarkib topgan. Ushbu qatlamlar fosillarga (o'simlik, hayvonot, mikroorganizmlar qoldiqlari yoki ularning faoliyati izlarining toshga aylangan shaklidir) boy bo'lishi mumkindir bu esa hududning o'tmishdagi hayot va muhit sharoitlarini o'rganishda katta rol o'ynaydi. Quljuqtovning keskaligidan dalolat beruvchi jihati bu paleozoy erasiga mansub bo'lgan jinslarning ham borligidir, ular asosan tizmaning sharqiy va markaziy qismlarida mavjuddir. Paleozoy erasiga tegishli bo'lgan jinslarning mavjudligi toshko'mir qatlamlari va boshqa organik mineral resurslarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tizmaning eng g'arbiy va sharqiy qismlari Kaynozoy erasining paleogen davriga, janubiy qismi esa neogen davriga tegishli ekanligi cho'kindi jinslarning to'planishidan dalolat beradi. Ikkinchi sabab esa Quljuqtovning markaziy qismi tog' hosil bo'lishi va eroziya jarayonlari bilan band bo'lgan, shuning uchun qadimgi jinslar yuzaga chiqib, Kaynozoy qatlamlari eroziya tufayli yemirilgan.

Tizmaning markaziy qismida joylashgan intruziv jinslarning mavjudligi magmatik faoliyatni ko'rsatadi va foydali qazilmalar metall rudalari manbai bo'lishi mumkin. Tektonik faoliyat jihatdan uzilmalar va burilishlar hududda kuchli geologik jarayonlar bo'lganini ko'rsatadi, bu esa tog'larning shakllanishi va qatlamlarning harakatini tushinishda yordam beradi.

Natijada kundalik faoliyatda yuqorida qayd qilingan neotektonik harakatlardan ogoh holda ish tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hududning geomorfologik tuzilishi uning tabiiy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Geomorfologik omillar relyef shakllari, ularning kelib chiqishi va o'zgarish dinamikasini belgilaydi. Buxoro viloyati va Quljuqtov tizmasining geomorfologik xususiyatlarini tahlil qilishda tektonik jarayonlar, eroziya va denudatsiya, shamol va suv ta'siridagi shakllanishlarni hisobga olish zarur.

Buxoro viloyati jmladan Quljuqtov tizmasi geologik jihatdan o'ziga xos hudud hisoblanib, uning relyefining shakllanishida tektonik jarayonlar, eroziya va akkumulyatsiya kabi tabiiy geografik jarayonlar muhim o'rin tutadi.

Quljuqtov tizmasi viloyatdagi muhim geomorfologik shakllardan biridir. Quljuqtov hududida tog' jinslarining nurashi va gravitatsion jarayonlar kuzatiladi. Ushbu hududdagi geodinamik jarayonlar va ularning geomorfologik ko'rinishi turli tabiiy jarayonlarning natijasi sifatida qaraladi. Quljuqtov tizmasining geomorfologik xususiyatlarini o'rganish, ayniqsa yer yuzasidagi tabiiy resurslar, ekotizm va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq jarayonlarni chuqurroq tushunish uchun zarurdir.

Xulosa. Hududning geologik tuzilishini o'rganish orqali tuproqlarning shakllanish jarayonlari, suv resurslarining joylashuvi va harakati, hamda yer yuzasi morfologiyasining rivojlanish qonuniyatlari aniqlanadi. Bu esa qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi va yer resurslaridan samarali foydalanish rejalari uchun geologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O'lkashunoslik atlas. Buxoro viloyati. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi. Toshkent 2014.14-15b
2. Пак А.И. Мезозойские и кайназойские коры выветривания Западного Узбекистана. Ташкент, Фан, 1978, 155стр.
3. Петрография Узбекистана. Книга первая. Ташкент, «Наука», 1964, 445 стр.
4. Сваричевская З.А. Геоморфология Казахстана и Средней Азии. Изд-во ЛГУ, 1965, 296 стр.

5. Федорович Б.А. Динамики и закономерности рельефообразования пустынь. Москва, "Наука", 1983, 239 стр.
6. Юрьев А.А, Умаров А.У. Геоморфология и новейшая тектоника западного Узбекистана. Ташкент, «Фан», 1971, 116 с.
7. Пятков К.К. Тектоника Центральных Кызылкумов. Автореферат канд. дисс. Ташкент, 1964
8. Бухарин А.К. Стратиграфия и литология среднекаменноугольных отложений Центральных Кызылкумов. Автореферат канд. дисс. Ленинград, 1964.

BUXORO VILOYATI SUV RESURLARNING TASNIFI VA GIDROEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Sobirov O'limasbek Norbek o'g'li

Buxoro Davlat Pedagogika instituti

Dunyo hamjamiyatida ilk sivilizatsiyalar daryo va suv havzalari bo'yida vujudga keladi. Masalan Qadimgi Misrda Nil havzasi bo'yida, Mesopatamiyada Dajla va Frot daryolari oraliq'ida, Hindistonda Hind va Ganga daryolari bo'yida qadimgi aholi manzilgohlari, shahar-davlatlar vujudga kelgan. Shu o'rinda Buxoro vohasining shakllanishi, qadimgi aholi manzilgohlari, qishloq va shaharlarning taraqqiy etishida Zarafshon daryosining o'rni beqiyos hisoblanadi. Shu sababli tarixchilar "Buxoro-Zarafshon daryosining tuhfasi" deb tasqildaydi. Sababi, qadimdan Buxoro vohasining asosiy suv manbai Zarafshon daryosi hisoblangan. Sababi Zarafshon daryosi qadimdan Buxoro vohasining asosiy suv manbai hisoblangan. Buxoro vohasi o'zining geografik joylashuviga ko'ra, eng yirik qishloq xo'jaligi rayonlaridan biri hisoblanadi. Qadim zamonlarda o'zining kuchli oqimi bilan Amudaryogacha yetib borgan Zarafshonning keyinchalik uzilib qolishi Zarafshon vohasi – Buxoro va Samarqand hududlarida minglab gektarlab yerlarning o'zlashtirilishi oqibati edi. Sug'orma dehqonchilikning doimiy o'sib borishi Zarafshon suvining yanada ko'proq sarflanishiga sabab bo'ldi va qachonlardir Amudaryoga qadar yetib borgan daryo endilikda vohaning o'zini suv bilan ta'minlay olmay qoldi. Oqibatda Buxoroning o'zida ham tez-tez suv tanqisligi sezilib turgan.

Afsuski, antik davr yozma manbalaridan keltirilgan yuqoridagi umumiy ma'lumotlar Buxoro vohasining o'zlashtirilishi tarixiy jarayoni yuzaki kuzatish uchun ham mutlaqo yetarli dalil emas, shuningdek, biz tadqiqot etayotgan masalalar ham muayyan aniqlik kirita olmaydi. Shuning uchun ham quyi Zarafshonning sug'orilish tarixi muammolarini yoritishda ko'proq arxeologik faktlarga suyanishga to'g'ri keladi. Chunki, Buxoroning turli tarixiy davrlarga mansub bo'lgan va hozirgi kungacha saqlanib qolgan moddiy madaniy yodgorliklari quyi Zarafshonning o'zlashtirilishi tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, vohaning sug'orilib obod etilishining uzoq tarixiy jarayonni o'rganishga tadqiqotchilar uchun behad boy faktik ma'lumotlar beruvchi yagona bosh manba hisoblanadi. Quyi Zarafshonning o'zlashtirilishi dinamikasini aniqlash uchun, avvalo Buxoro vohasida, ayniqsa, uning qadimgi sug'orilgan yerlarida topib tekshirilgan arxeologik yodgorliklarning qisqa bo'lsa ham umumiy malumoti ustida to'xtab o'tish naqsadga muvofiqdir.

Buxoroning qadimgi sug'orilgan yerlarning asosiy katta qismi Zarafshon daryosining quyi oqimida, uning delta xarakteridagi qadimgi yirik irmoqlaridan biri Vobkentdaryo etaklarida joylashgan bo'lib, u Buxoro vohasining g'arbiy va shimolig'arbiy chegarasida yondashgan. Janubdan shimol tomon qariyb 55 km cho'zilgan bu dehqonchilik massivining maydoni taxminan 100-120 ming gektarga teng bo'lib, uning tashqi chegarasi vohaning shimoli-g'arbiy qismida-hozirgi obod yerlar zonasidan 10-12 km, g'arbda esa qariyb 35 km tashqaridan Urganjiy dashtidan o'tadi. Bu jarayonning arxeologik manzarasi mezolit davrining ahyon-ahyonda uchrab turadigan chaqmoqtosh qurollaridan tortib, to antik davr va ilk o'rta asrlarning yirik inshootlarixom g'isht va paxsadan bino qilingan qadimgi shaharlar, qal'alar va qasrlarning xarobalari hamda Qizilqumga tutashib ketgan suvsiz bu hududlarning qachonlardir sug'orilib obod etilishida xayotbaxsh rol o'ynagan qadimgi sug'orish tarmoqlarining qurib qolgan izlarini ham o'z ichiga olgan xilma-xil arxeologik yodgorliklarning kompleksi bilan ifodalanadi.

Halimova G.S., Mansurova F.N., G'JDUVON TUMANI TABIATI VA EKOLOGIYASINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI.....	128
Kodirova Maxfuza Maxmudovna, SENTOB QISHLOG'I LANDSHAFTLARI VA TURIZM IMKONIYATLARI	130
Mirzoyeva Istat Elmurodovna, Nematov Anvar Nusratovich, Eshmanov Husniddin Narzullo o'g'li, QOROVULBOZOR TUMAN YAYLOVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI	133
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich, Eshqobilov Asadbek Erkin o'g'li, QASHQADARYO VILOYATI TURISTIK IMKONIYATLARI	135
Norquvvatova Umida, Musurmonova Muxlisa, ATROF – MUHIT VA EKOLOGIYA MUAMMOLARI, UNI YAXSHILASH MASALALARI.....	138
Н.Ж.Бабамурадова, ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРИРОДЫ БУХАРСКОГО ОАЗИСА.....	140
Mirzayeva Aziza Zokir qizi, IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA JIZZAX VILOYATI SUV MANBALARIDAN TURIZMDA FOYDALANISH	142
Xaydarova Fotimabonu To'liqinovna, Ibroyimova Bahor Iskandar qizi, IQLIM O'ZGARISHI VA EKOLOGIYA.....	144
Suyarova Nargiza Ashur qizi, "QARSHI CHO'LI EKOTURIZMI: IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI"	147
To'g'ilov Husan Samariddin o'g'li O'ZBEKISTONGA KELAYOTGAN XORIJIY TURISTLAR OQIMINING DINAMIKASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	149
Adixonova Z.A., Halimova G.S., QULJUQTOV TIZMASINING GEOLOGIK VA GEOMORFOLOGIK JIHATLARI XUSUSIDA	151
Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Sobirov O'lmasbek Norbek o'g'li, BUXORO VILOYATI SUV RESURLARNING TASNIFI VA GIDROEKOLOGIK XUSUSIYATLARI	153
Qalandarova D.D., Nuritdinov R.M., Islomova M.G', GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI YUMSHATISH YO'LLARI.....	156
Ro'ziqulov Jahongir Orziqulovich, SURXONDARYO HAVZASI DARYOLARI OQIMINING HOSIL BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IQLIMIY OMILLAR.....	159
Nurliboyev Xusan Xolbek o'g'li, IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA DARYOLAR SUV SARFI VA MUALLAQ OQIZIQLARINI O'RGANISHDA BIRLAMCHI KUZATUVLAR TAHLILI	163
Ergasheva Mayjuda Komiljonovna, Sharopova Shaxrizoda G'ayrat qizi, QUYI ZARAFSHON VOHASI LANDSHAFTLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI	165

4-SHO'BA. CHO'L-VOHA EKOSISTEMASI VA IQTISODIYOT (MODDIY VA NOMODDIY ISHLAB CHIQRISH) SOHALARIDA TOZA EKOLOGIK MAHSULOTLAR TAYYORLASH VA IKKILAMCHI XOMASHYOLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....

Boratova Muxtasam G'aniyevna, Rasulova Zilola Asatulla qizi, Muxammedov Shuxrat Qosimovich, SAMARQAND VILOYATIDA EKOTURIZMNING RIVOJLANISHINI ASOSIY ASPEKTLARI	168
Boratova Muxtasam G'aniyevna, Muxammedov Shuxrat Qosimovich, Qosimova Dilafruz Shuxrat qizi, "QIZILQUMSEMENT" ZAVODINING ATROF-MUHITGA TA'SIRI VA UNING EKOLOGIK MONITORING NATIJALARIGA TAHLILY YONDASHUV	171
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna, IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK YECHIMLARI.....	176
Xujamova Muhabbat Tog'ay qizi, QASHQADARYO VILOYATINING SUG'ORILADIGAN YERLARI VA EKIN TURLARI.....	180
D.D.Qalandarova, X.O.Odilova, M.G'.Islomova, YASHIL IQTISODIYOT – YANGI AVLOD BOG'LARINING POYDEVORIDIR.....	182